

108

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

G.Sh. Rikhsiyeva


2020 yil



"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

2020 yil "29" 08



Ro'yxatga olindi: № MD 5A231102

2020 yil "29" 08

XALQARO BIZNES

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	230000	Iqtisod
Mutaxassislik:	5A231102	Tashqi iqtisodiy faoliyat (tashqi savdo faoliyati)

Toshkent-2020



7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202 <u>0</u> yil "<u>29</u>" <u>08</u> dagi <u>4</u> -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202 <u>0</u> yil "<u>29</u>" <u>08</u> dagi <u>452</u> -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: Voxidova M.X. -Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm" kafedrası o'qituvchisi, PhD
9.	Taqrizchilar: Vahobov A.V. - O'zMU, "Makroiqtisodiyot" kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Tashpulatova L.M.-Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası mudiri, i.f.n.

BTS

	- individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi lozim.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. R. Benlamri. M.Sper. Leadership, innovation and entrepreneurship as driving forces of the global economy. Springer. 2016.-784p. 2. Р.Гриффин, М.Пастей. Международный бизнес. Учебник. Киев 2006. С.1086. 3. Jim Sherlock, Jonathan Reuvid. The handbook of international business. UK. 2008.p.411. 4. Под.редак. Т.Г.Попадюк, В.Я.Горфинкля. Бизнес-планирование. М.2015.-298 с. Qo'shimcha adabiyotlar 5. Mirziyoyev Sh.M. Tandiqiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”. 2017. 6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016. - 56 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b. 8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. - 488 b. 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3351-son Qarori. www.lex.uz 10. J.Kontolla, T.Barath. Advances in human factors, business management, training and education. Swirland. 2017.-115p. 11. P.Subba Rao. International business environment. India. 2008.- 259p. 12. Christian Bjornskov. Basics of international economics. 2005. P.94. Axborot manbaalari 13. www.ziyounet.uz 14. www.edu.uz 15. www.economicus.ru 16. www.canvanazer.com

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
5AXB223	2020-2021	2	3	
Fan/modul turi	Ta'lim turi		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek/rus		2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xalqaro biznes	30	60	90
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha mutaxassislik talabalariga xalqaro biznesning mahalliy biznesdan farqini keng tushuntirish, xalqaro biznesning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar va jahon xo'jaligidagi har bir mamlakatda ularning o'ziga xos jihatlari to'g'risida keng bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, xalqaro kompaniyalarni boshqarish, ularning faoliyatini mustaqil tahlil eta olish, xorijiy bozorlarni o'rganishdagi asosiy yondashuv va usullarni mustaqil tanlash hamda shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga xalqaro iqtisodiy aloqalarning murakkab muammolarini xalqaro biznes qonuniylari orqali yechishning zamonaviy nazariy asoslarni o'rganish; jahon savdosining tovar va jug'rofiy strukturasi hamda jahon bozori konyukturasini chuqur tahlil etish bilan bog'liq nazariy bilimlarni yetkazish; xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'lamining taraqqiy etishida xalqaro tashkilotlarning, transmilliy kompaniyalarning rolini har tomonlama tahlil qilish va o'rganishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Xalqari biznesning asosiy xususiyatalari. Xalqaro biznes tushunchasi. Xalqaro biznesni o'rganish zarurati. Xalqaro tadbirkorlik faoliyatining asosiy shakllari. Xalqaro tadbirkorlik faoliyati shakllari 2-mavzu. Xalqaro bozorlar va biznes faoliyati markazlari. Shimoliy Amerika mamlakatlari bozori. G'arbiy Yevropa mamlakatlari bozori. Osiyo mamlakatlari bozori. Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlari bozori. Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bozorlari.			

3-mavzu. Milliy savdo siyosatining shakllanishi.

Davlatning xalqaro savdoga aralashuvining mantiqiy izohi. Xalqaro savdoning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar. Xalqaro savdo taraqqiyotiga ko'maklashish.

4-mavzu. Xalqaro hamkorlik.

Tariflar va savdo to'grisidagi asosiy kelishuvlar va Jahon savdo tashkiloti. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. Yevropa Ittifoqi. Jahon savdo tashkilotining xalqaro savdo jarayonidagi talablari.

5-mavzu. Xalqaro operatsion va strategik menejment.

Operatsion menejmentning o'ziga xos xususiyati, ishlab chiqarish menejmenti, yetkazib berishni boshqarish, xizmat ko'rsatishda xalqaro o'ratsiyalar. Xalqaro strategiya elementlari. Xalqaro strategiyalarni rivojlantirish. Xalqaro strategiya bosqichlari. Xizmatlar tashkiliy menejmenti.

6-mavzu. Xorijiy bozorlar tahlili.

Xorijiy bozorlar tahlili. Alternativ xorijiy bozorlarni baholash. Xorijiy bozorlarga tovar va xizmatlar eksp'orti. Xalqaro litsenziya. Xalqaro franshaying.

7-mavzu. Xalqaro strategik alyanslar

Kompaniyalarning xalqaro hamkorligi. Strategik alyanslarning afzalliklari. Strategik alyans turlari. Strategik alyanslar faoliyati. Qo'shma korxonalar.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalqaro tadbirkorlik faoliyati shakllari.
2. Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bozorlari.
3. Jahon savdo tashkilotining xalqaro savdo jarayonidagi talablari.
4. Xizmatlar tashkiliy menejmenti.
5. Biznes-strategiya.
6. Xalqaro franchayzing.
7. Qo'shma korxonalar.
8. Xalqaro kompaniyalarda motivatsiya.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish istiqbollari.

2. Xalqaro biznesda narx shakllanishi va uning xos turlari.
3. Xalqaro biznesda etikasi.
4. Boj tariflarining afzalliklari va ziddiyatlari.
5. Iqtisodiy aloqalarni sug'urtalashning xalqaro tizimi.
6. Markaziy Osiyo mamlakatlari va Jahon savdo tashkiloti.
7. Alternativ xorijiy kom'aniyalar.
8. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.
9. Strategik alyanslarning afzalliklari.
10. Xalqaro strategiya.
11. Xalqaro bozorlar tahlili.
12. Xalqaro tadbirkorlik.
13. Globallashuv sharoitida TMKlar.
14. Qo'shma korxonada nizolarni boshqarish.
15. Nestleda strategik menejment.
16. Cola-colada xalqaro operatsion menejment.
17. O'zbekistonda franchayzingning huquqiy asoslari.
18. Davlatning tashqi savdoga aralashuvi (tarif usullar).

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi

VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

3. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:
 - Xalqaro biznesning asosiy xususiyatlarini anglash, xalqaro operatsion va strategik menejmentni, ularning o'zaro aloqadorligini, xalqaro kompaniyalar boshqaruvining o'ziga xos jihatalari, xalqaro tashkilotlar, xalqaro iqtisodiy integratsiyalar va ularning faoliyati, turlari va jahon xo'jaligidagi funktsiyalari, liderlik, motivatsiya singari tushunchalari to'g'risida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
 - Xalqaro bozorlar va ularning o'ziga xos tomonlarini, xorijiy bozorlarni tahlil qilish, xalqaro biznesning xalqaro franchayzing, xalqaro litsenzion bitim singari ko'rinishlarini bir-biridan farqlash, ularning mamlakatlar iqtisodiyotidagi ijobiy va salbiy tomonlarini mustaqil tahlil qilish *ko'nikmalarga ega bo'lishi*;
 - Xalqaro kompaniyaning faoliyatini qiyosiy va SWOT-tahlil qilish, xalqaro kompaniyalarda mehnat faoliyatini olib borish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.
4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:
 - ma'ruzalar;
 - interfaol keys-stadilar;
 - seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
 - guruhlarda ishlash;
 - taqdimotlarni qilish;